

ANIMAL EXPLOITATION: LIVESTOCK BREEDING AND HUNTING DURING THE QARAKHANID PERIOD (A COMPARATIVE ANALYSIS OF OLD AND NEW RESEARCH)

Olimov Sanjarbek

Y. G'ulomov nomidagi Samarqand Arxeologiya
Instituti kichik ilmiy xodimi
e-mail: sanj01010928.arch@gmail.com

Abstract. In recent years, the active implementation of advanced technologies and innovative research methodologies in the archaeology of Uzbekistan has significantly enhanced the effectiveness of scholarly outcomes. This article examines issues related to the lifestyle, economic practices, and daily diet of medieval populations based on archaeozoological evidence. The study presents a comparative analysis of data derived from both earlier and recent investigations conducted at archaeological sites across various regions of Uzbekistan. As a result, general patterns of diversity and variability in animal species identified at sites in Ancient Khorezm and other regions are synthesized. Furthermore, the article proposes preliminary interpretations of the factors underlying this diversity and addresses the nature of socio-economic and cultural interactions between sedentary and nomadic communities.

Keywords: Qarakhanids, archaeozoology, pastoral societies, wild and domestic animals, integration.

HAYVONLAR EKSPLUATASIYASI: QORAXONIYLAR DAVRIDA CHORVACHILIK VA OVCHILIK (ESKI VA YANGI TADQIQOTLARNING SOLISHTIRMA TAHLILI)

Annotatsiya. Bugungi kunda O'zbekiston arxeologiyasida zamonaviy texnologiyalar va ilg'or tadqiqot usullarining keng joriy etilishi ilmiy natijalar samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Mazkur maqolada o'rta asrlar aholisi turmush tarzi, xo'jaligi hamda kundalik ratsioni masalalari arxeozoologik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida O'zbekistonning turli hududlarida joylashgan arxeologik yodgorliklardan olingan eski va yangi ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilindi. Natijada Qadimgi Xorazm hamda boshqa hududlardagi yodgorliklarda aniqlangan hayvon turlarining xilma-xilligi va o'ziga xos farqlari umumlashtirildi. Shuningdek, mazkur xilma-xillikning omillari yuzasidan dastlabki ilmiy talqinlar ilgari surilib, o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy aloqalar masalasi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Qoraxoniylar, arxeozoologiya, chorvador jamiyatlar, yovvoyi va xonaki hayvonlar, integratsiya.

ЭКСПЛУАТАЦИЯ ЖИВОТНЫХ: СКОТОВОДСТВО И ОХОТА В КАРАХАНИДСКИЙ ПЕРИОД (СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СТАРЫХ И НОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ)

Аннотация. В настоящее время в археологии Узбекистана широкое внедрение современных технологий и передовых методов исследования существенно повышает эффективность научных результатов. В данной статье анализируются вопросы образа жизни, хозяйственной деятельности и повседневного рациона средневекового населения на основе археозоологических данных. В рамках исследования проведён сравнительный

анализ результатов ранних и новейших исследований, полученных с археологических памятников различных регионов Узбекистана. В результате обобщены особенности разнообразия и различий видового состава животных, выявленных на памятниках Древнего Хорезма и других территорий. Кроме того, предложены предварительные интерпретации факторов, обусловивших данное разнообразие, а также рассмотрены вопросы социально-экономических и культурных взаимодействий между оседлыми и кочевыми сообществами.

Ключевые слова: Караханиды, археозоология, скотоводческие общества, дикие и домашние животные, интеграция.

Markaziy Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston ham tabiiy iqlim sharoitlari turlicha bo'lgan hududlarni o'z ichiga oladi. Tog', tog'-oldi – qir-adir, suvsiz cho'l, suv manbalariga boy sug'oriladigan vodiylarda qadimdan ko'chmanchi va o'troq aholi vakillari yashab, yirik davlatlar asosi bo'lgan sivilizatsiyalarga asos solgan. Shuni aytish lozimki, Markaziy Osiyo vohalarining iqlimi turg'un ekologik muhitga ega emas. Xususan, ularning ekologik chegaralari vaqt o'tishi bilan o'zgarishga moyil [Angourikas, Andreas et al., 2013]. Mazkur omil ba'zi hollarda insonlarni yashab turgan joyidan ko'chishga majbur qilgan, gullab-yashnagan shaharlarning inqiroziga sabab bo'lgan (toshqinlar, qurg'oqchilik, daryo o'zanlarining o'zgarishi). Qattiq ekologik-iqlim sharoitlariga qaramasdan, ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanadigan jamoalar tog' balandliklarida yirik qishloqlar, hatto shaharlarga ham soldi. M. Frachetti va F. Maqsudov tomonidan aniqlangan Jizzax viloyatining Molguzar tizmasidagi Toshbuloq yodgorligi buning yaqqol misolidir. Ushbu yodgorlik hududidagi shaharga Qoraxoniylar davrida, ya'ni X asr oxirlarida asos solinib, XI asr boshlarida gullab yashnashi taxmin qilinadi. Toshbuloq yodgorligining aniqlanishi Qoraxoniylar nafaqat yirik shaharlarda, balki chorvador qabilalar tomonidan boshqarilgan balandlik mintaqalarda ham o'z siyosatini o'rnatganini ko'rsatadi [Michael D. Frachetti, Farhod Maksudov, 2014]. Keyinchalik Toshbuloq yodgorligi o'rnida Qoraxoniylar imperiyasining boshqaruvidagi yirik ko'chmanchilar shahri mavjud bo'lganligi aniqlandi [F. Maksudov et. al., 2019]. Ushbu kashfiyot Qoraxoniylar davrida ko'chmanchi chorvadorlar jamoalarining nafaqat tovar va madaniyatlar almashinuvi, balki shaharlashuv jarayonlarida ham muhim o'ringa ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Qoraxoniylar davrida ko'chmanchi chorvadorlar va dehqonchilik bilan shug'ullanadigan o'troq shahar-qishloq aholisining yashash tarzi, o'zaro aloqalari so'nggi yillarda keng tadqiq qilinmoqda. Ayniqsa, yuqoridagi Toshbuloq yodgorligi shunday tadqiqotlarning yorqin misolidir. Zero. Markaziy Osiyoda ko'chish, harakatlanish mahalliy madaniyatlarning birlashgan, ijtimoiy va siyosiy institutlarga integratsiya qilishida muhim rol o'ynaydi [Brite, 2013]. Biroq Qoraxoniylar davri arxeologik yodgorliklarida yuqoridagi kabi omillarni aniqlash uchun arxeozoologik tadqiqotlarning salmog'i ko'p emas. Bu esa jamiyat hayotida chorvachilik, ovchilikning ahamiyati, o'troq va chorvador jamoalar integratsiyasi, aloqalari haqidagi tushuncha va ma'lumotlarni cheklaydi. Mazkur muammoni yechish uchun ushbu maqolada Qoraxoniylar nazorati ostida bo'lgan hududlar va Qadimgi Xorazm arxeologik yodgorliklaridan aniqlangan, tadqiq qilingan tadqiqotlar natijalari o'zaro solishtirilib, tahlil qilindi. O'tgan asrda va 2000-yillardan keyin Buxoro va Samarqand Sug'di, Qadimgi Xorazm, Surxon vohasi, Farg'ona vodiysidagi Qoraxoniylar davriga oid sanoqli yodgorliklarda arxeozoologik izlanishlar o'tkazilgan. Maqolada bu izlanishlar natijalari hududlar kesimida o'zaro solishtirilib, yodgorliklar joylashgan atrof-muhit ekologiyasining yovvoyi va xonaki hayvonlar xilma-

xilligiga ta'siri, chorvachilik va ovchilikning Qoraxoniylar davrida aholi turmushidagi ahamiyati yoritildi.

Materiallar va metodlar

O'tgan asrning 40-yillarida Tsalkin Xorazm kompleks arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tarkibida Xorazmda [Цалкин, 1952], 90-yillarda A. Botirov Buxoro vohasidagi Poykand va Buxoro shaharlaridagi madaniy qatlamlaridan aniqlangan fauna qoldiqlarini o'rgangan [Батиров, 1990]. Shuningdek, O'zbekiston-Italiya xalqaro qo'shma ekspeditsiyasining Kofirqal'a yodgorligida 2001-2014-yillarda to'plangan hayvon suyaklari ham italyan arxeologlar [Eleonora Serrone et. al., 2017] va O'zbek-Yapon qo'shma ekspeditsiyasi tarkibidagi mutaxassislar tomonidan 2020-yillarda aniqlangan materiallar o'rganilgan [Alisher Begmatov et. al., 2024]. 2024-yilda Farg'ona vodiysida Axsikent yodgorligida Qoraxoniylar davri qatlamlaridan to'plangan hayvon suyaklarining ham bir qismi tadqiq qilingan [S. Olimov, 2025]. Yuqoridagi tadqiqot natijalari O'zbekistonning turli hududlarida amalga oshirilgan bo'lib, Qoraxoniylar davrida aholi tomonidan hayvonlarning ekspluatasiya qilinishi, turlar tarkibi va ulushiga tabiiy-geografik omillarning ta'sirini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot obyekti bo'lgan materiallar, yuqorida aytilganidek, V. I. Tsalkin tomonidan o'rganilgan Qadimgi Xorazmdagi Hayvonqal'a (IX-X), Tomar qal'a (XII), Puljoy (XII), Tuproqqal'a (XII-XIV) [В.И. Цалкин, 1966], A. R. Botirov tomonidan Buxoro shahrining o'rta asrlar qatlamlari va Farg'ona vodiysidagi Qoraxoniylar davri qatlamlaridan aniqlangan. Markaziy Sug'd vohasida joylashgan Kofirqal'a yodgorligi uchun esa Islom davriga oid katta miqdordagi (3983 dona) hayvon suyaklarini o'rgangan italyan mutaxassislarning tadqiqotidagi statistik natijalar olindi. Islom davridagi materiallar VIII asrning ilk davri – XII asrning boshlarigacha bo'lgan davrga taalluqlidir [Eleonora Serrone et. al., 2017]. Ko'p hollarda V.I. Tsalkin va A.R. Botirovning tadqiqotlarida qo'y (*Ovis aries*) va echki (*Capra hircus*) alohida aniqlanmasdan, mayda tuyoqli sutemizuvchilar sifatida qayd etilgan. Shu sababdan barcha tadqiqotlardagi qo'y va echkining miqdorlari umumiy qo'y/echki (*Caprinae*) sifatida, Kofirqal'adagi mushuk (*Felid catus*) va mushuksimonlar turi umumiy mushuksimonlar (*Felidae*) sifatida statistikaga kiritildi.


Yuqoridagi tadqiqotchilar o'z izlanishlarida hayvon suyaklari qismlarining o'lchovlarini ham amalga oshirgan bo'lib, mazkur maqolada faqatgina hayvon turlari va hayvon elementlarining statistikasi o'zaro solishtirildi.

Results

Xonaki hayvonlar

Xonaki hayvonlar barcha hududlarda aholining kundalik iste'moli hamda xo'jalik foydalanishda yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatadi(1-jadval). Umumiy fauna qoldiqlarining foizlarda hisoblangan miqdorlaridan ma'lum bo'ladiki, barcha yodgorliklarda, ularning turli tabiiy muhitda joylashganiga qaramay, dominant tur qo'y/echkidir (*Caprinae*). Faqatgina Tuproqqal'a yodgorligida 2 dona hayvon suyagi mavjud bo'lib, ularning biri qo'y/echki, yana biri qoramolga (*Bos taurus*) tegishlidir. Kofirqal'a yodgorligi eng ko'p miqdordagi qo'y/echki suyaklariga egalik qilib, umumiy miqdorning qariyb 74.5% ini tashkil

qiladi.



1-rasm. Yodgorliklarning xaritada joylashuvi: to'q yashil-zangori rang – nisbatan tekislik va past hududlar, kulrang, zarg'aldoq va sariq rang – tog', tog'oldi va unga yaqin hududlarni bildiradi (Xarita T. Ro'ziboyev¹ va Aghil Aghili² tomonidan tayyorlangan).

Qoramol (*Bos taurus*)ning eng katta miqdori esa, Tuproqqal'ani hisobga olmaganda, Tomarqal'a yodgorligidan aniqlangan. Umuman olganda, Xorazmdagi keltirilgan barcha yodgorliklarda qoramol turiga tegishli suyaklar Farg'ona, Sug'd, Buxoro yodgorliklaridagidan sezilarli darajada ko'p. Ot (*Equus sp.*, *Equus caballus*) turi ham Xorazm yodgorliklarida boshqa hududlarga qiyoslaganda kattaroq miqdorga ega. Yuqoridagi turlardan farqli ravishda, Buxoro va Kofirqal'ada xonaki hayvonlardan tuya (*Camelus sp.*), it (*Canis familiaris*) va cho'chqa (*Sus domesticus*) mavjud bo'lgan holda, Xorazm yodgorliklari va Axsikentda bu turga suyaklar yo'q. Biroq Axsikent yodgorligidan aniqlangan fauna materiallari to'liq o'rganilsa, tuya, ot, mushuk (*felis catus*) va boshqa ko'plab turlar aniqlanishi mumkin. Chunki Axsikentning Shimoliy transheyasidagi 2-3-xonalaridan aniqlangan fauna materiallarigina o'rganilgan, yodgorlikning boshqa obyektlaridan aniqlangan hayvon suyaklarining o'rganilishi ko'proq turlarlarni aniqlashga imkon beradi. Eshak (*Equus asinus*) Tuproqqal'a va Axsikentdan boshqa barcha yodgorliklarda kam miqdorda bo'lsa-da, mavjud. Lekin Buxoroda eshak suyaklari (7.8%) otga tegishli (5.4%) qoldiqlardan ko'proq. Uy hayvonlaridan tovuq (*Gallus gallus*) 9.9% Axsikent

¹ Y. G'ulomov nomidagi Samarqand Arxeologiya Instituti

² Ipak yo'li turizm va madaniy meros universiteti

hamda 4.5% Buxoroda aniqlangan. Axsikent yodgorligida aniq ajratish imkoni bo'lmaganligi sababli tovuq va qushning miqdori umumiyashtirilgan

Ko'rsatkichlar % da berilgan	Qoramol	Qo'y/echki	Ot	Eshak	Tuya	It	Jayron	To'ng'iz	Tulki	Cho'chqa	Tovuq	Qush	Bug'u	Qulon	Mushuksimonlar
Xorazm yodgorliklari															
Tuproqqal'a	50	50													
Hayvonqal'a	27	68	3	0.3			1.7								
Tomarqal'a	33	45.8	13	4.2											
Puljoy	25	61.2	2	2											
Axsikent	4.3	67.7								9.9(tovuq/qush)					
Buxoro	17	51.5	5	7.8	4.4	0.7	0.2		0.2	4.2	4.5		0.7	3.5	
Kofirqal'a	12	74.5	2	0.4	0.3	0.5		0.3	1.4	0.5		5.8	0.1		0.3

1-jadval. Hayvon turlarining turli hududlardagi yodgorliklar bo'yicha tarqalishi.

Yovvoyi hayvonlar

Yovvoyi turning umumiy foizdagi ulushi xonakilariga nisbatan ancha kam, hatto ba'zi yodgorliklarda, masalan, Hayvonqal'ada 1.7% miqdordagi jayron (*Gazella subgutturosa*) suyak qoldiqlarini hisobga olmaganda, Qadimgi Xorazmning boshqa yodgorliklarida topilmagan. Jayron, shuningdek, Buxoroning o'rta asr qatlamlaridan ham aniqlangan (0.2). Yovvoyi hayvonlar eng ko'p uchraydigan yodgorliklar Buxoro va Kofirqal'a hisoblanib, tulki va bug'u (*Cervus elaphus*) har ikki yodgorlikda ham uchraydi. Qulon (*Equus hemionus*) faqat Buxoroda, Qush (*Aves*) 5.8%, mushuksimonlar (*Felidae*) 0.3%, to'ng'iz (*Sus scrofa*) 0.3% bilan Kofirqal'a yodgorligida aniqlangan.

Muhokama

Yuqoridagi jadvaldan ma'lum bo'ladi-ki, Qadimgi Xorazm hududida qisman Qoraxoniya davriga oid keltirilgan barcha yodgorliklarda hayvon turlari, ularning miqdoriy ulushi deyarli bir xil: barcha yodgorlikda qo'y/echki turi ustunlik qiladi, faqat Tuproqqal'ada qoramol va qo'y/echki teng miqdorda aniqlangan (atigi 2 dona element). Hayvon qal'adan tashqari boshqa yodgorlikda yovvoyi hayvon turi qayd etilmagan. Afsuski, arxeobotanik izlanishlarsiz mazkur yodgorliklar aholisi turmushida dehqonchilikka ko'proq suyanganni yoki chorvachilik ularning hayotida muhim o'rin egallaganmi, degan savollarga javob topish biroz mushkul. Lekin shuni aniqlik bilan aytish mumkin, bu yodgorliklarning qadimgi aholisi oziq-ovqatida xonaki hayvonlar go'shti muhim o'rin egallagan. Buxoro va Kofirqal'a yodgorliklari ilk va rivojlangan o'rta asrlarning boshida muhim shahar va ma'muriy markazlardan bo'lgan. Shaharlar va atrof hududlar aholisi, asosan, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq bilan shug'ullanishini hisobga olsak, bunday holatda go'shtga bo'lgan ehtiyojning bir qismi kam miqdorda chorva mollari yetishtirish, ehtiyojning qolgan qismi esa chorvador qabilalar bilan mahsulotlarni chorva mollari ayirboshlash va ba'zi hollarda yovvoyi hayvonlarni ovlash hisobidan qoplangan. Shu nuqtai nazardan, Qadimgi Xorazm hududidagi yodgorliklar aholisi yetarlicha chorva mollari yetishtirish, ehtiyojning qolgan qismi esa chorvador qabilalar bilan mahsulotlarni chorva mollari ayirboshlash va ba'zi hollarda yovvoyi hayvonlarni ovlash hisobidan qoplangan. Shu nuqtai nazardan, Qadimgi Xorazm hududidagi yodgorliklar aholisi yetarlicha chorva mollari yetishtirish, ehtiyojning qolgan qismi esa chorvador qabilalar bilan mahsulotlarni chorva mollari ayirboshlash va ba'zi hollarda yovvoyi hayvonlarni ovlash hisobidan qoplangan. Shu nuqtai nazardan, Qadimgi Xorazm hududidagi yodgorliklar aholisi yetarlicha chorva mollari yetishtirish, ehtiyojning qolgan qismi esa chorvador qabilalar bilan mahsulotlarni chorva mollari ayirboshlash va ba'zi hollarda yovvoyi hayvonlarni ovlash hisobidan qoplangan.

Boshqa hududlardan ko‘ra Farg‘ona vodiysidagi Axsikent yodgorligida parrandachilik bilan bog‘liq suyak elementlari ko‘p uchraydi. Mazkur yodgorlikda Qoraxoniylar davrida parranda yoki qush suyaklari qo‘y/echkidan keyin ikkinchi o‘rinda bo‘lib, o‘rta asrlar Axsikent aholisi iqtisodi, turmush tarzida parrandachilik muhim o‘rin egallaganini mazkur ko‘rsatkichlar hamda qazishmalar davomida aniqlangan ko‘plab tuxum po‘chog‘i qoldiqlari orqali ko‘rish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, Qoraxoniylar davri yodgorliklari uchun umumiy bo‘lgan jihat – qo‘y/echki miqdorining ko‘pligidir. Shuningdek, Axsikentdan boshqa barcha yodgorlikda qoramol eng ko‘p iste‘mol qilingan hayvon bo‘lsa, Hayvonqal‘a, Kofirqal‘a va Buxorodan boshqa yodgorliklarda yovvoyi hayvonlar iste‘mol qilinmagan. Parrandachilik esa Axsikent aholisi hayotida muhim rol o‘ynagan. Yovvoyi hayvonlardan Kofirqal‘ada tulki kabi yirtqich hayvonning uchrashi, aholi tomonidan uning terisi uchun ovlangani suyaklarda qolgan izlardan ma‘lum bo‘ladi [Eleonora Serrone et. al., 2017]. Mazkur ko‘rsatkichlar shaharlar aholisining qo‘shni hududlardagi chorvador qabilalar bilan doimiy integratsiya, ayirboshlash mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yuqorida aytilganidek, aholining iqtisodiy hayoti va atrof hududlardagi chorvador qabilalar bilan aloqalar, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarida dehqonchilik va chorvachilik ulushlarni aniqlash yanada ko‘proq, kengroq izlanishlarni, arxeobotanik tahlillarni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Angourikas, Andreas, et. al. *Land Use Patterns in Central Asia. Step 1: The Musical Chairs Model. Journal of Archaeological Method and Theory* 20. 2013.
2. Alisher Begmatov et. al. The Grand Hall of Kafir-kala: An observation of archaeological finds, botanical and zoological evidence. // *History and archaeology of Turan*. N.6. 2024. P. 194-206.
3. Brite. E.B. 2013. Mobility in the central asian oasis states: archaeological evidence from antique Khorezm // *Bulletin of IICAS*, vol.18, P. 3-25.
4. Eleonora Serrone et. al. Animal Exploitation in the Samarkand Oasis (Uzbekistan) at the Time of the Arab Conquest:: Zooarchaeological Evidence from the Excavations at Kafir Kala // *ASWA XIII*. 2017. P. 221-230.
5. Maksudov F. et. al. 2019. Nomadic Urbanism at Tashbulak: A new highland town of the Karakhanids//*Urban cultures of Central Asia from the Bronze Age to the Karakhanids*. P. 283-305. DOI: 10.13173/9783447111690.283
6. Michael D. Frachetti, Farhod Maksudov. 2014. The landscape of ancient mobile pastoralism in the highlands of southeastern Uzbekistan, 2000 B.C.–A.D. 1400 // *Journal of Field Archaeology*, No.3, vol.39. P.195-212.
7. Olimov S. 2025. Axsikent arxeologik yodgorligidan aniqlangan fauna materiallari tahlili: dastlabki natijalar. // *IMKU*. N.46. B. 258-269.
8. Батиров А. Р. 1990. Фаунистические остатки млекопитающих из древних городищ Бухарского оазиса. // *ИМКУ*, № 23. – Ташкент. – С. 122-130
9. Цалкин В.И. Фауна древнего Хорезма и свете данных археологии // *Древнее животноводство племен Восточной Европы и Средней Азии*. «Наука». –М.: 1966. С. 108-157.
10. Цалкин В. И. Фауна античного и раннесредневекового Хорезма // *Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции*. – М.: 1952. С. 213-244.